

Tarixi

Fakultet 1945 yilda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti (“TIQXMMI” MTU) tarkibida “Yer tuzish” nomi bilan tashkil etildi. Fakultet 2004 yildan 2018 yilga qadar “Yerdan foydalanish va yer kadastrı” nomi bilan faoliyat ko’rsatgan. 2018 yildan buyon “Yer resurslarini boshqarish ” nomi bilan faoliyat ko’rsatib kelmoqda.

Fakultet respublikada yer tuzish, yer kadastrı, geodeziya, geoinformatika, kartografiya va kadastr sohalari bo’yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi maskan hisoblanadi. Fakultet dastlab tashkil etilganda uning birinchi rahbari dotsent M.N.Maslov, keyinchalik esa professor P.K.Tatur, dotsentlar J.K.Baranov, V.S.Artamonov, A.N.Nazirov, A.T.Abdurazzoqov, professor O.Ramazonov, dotsent Q.Raxmonov, professor S.Avezbayev va dotsent Z.Muqimovlar yetakchilik qilishdilar. 2019 yildan buyon PhD, dotsent Sh.Narbayer fakultetga rahbarlik qilib kelmoqda. Fakultet tarkibida dastlab bitta “Geodeziya” kafedrası mavjud bo’lgan bo’lsa, keyingi yillarda “Yer tuzishni loyihalash”, “Qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va obodonlashtirish”, “Aerofotogeodeziya”, “Tuproqshunoslik va dehqonchilik”, “Yer tuzish va yer munosabatlari”, “Yer kadastrı”, “Kartografiya” kafedralari tashkil etilgan.

Bugungi kunda fakultetda “Yerdan foydalanish”, “Geodeziya va geoinformatika”, “Davlat kadastrlari”, “Tuproqshunoslik va dehqonchilik” va “Oliy matematika” kafedralari faoliyat ko’rsatmoqda. Kafedralarda respublikamiz ravnaqi uchun o’zining munosib hissasini qo’shayotgan olimlar va yetuk professorlar A.Altiyev, A.Chertoviskiy, S.Avezbayev, O.Ramazanov, B.Xudoyorov, T.Ergashev, U.Nigmadjanov, dotsentlar Q.Raxmonov, I.Musayev, A.Babajanov, O. Xaqberdiyev, Sh.Narbayer, X.Xayitov, S.Abduraxmonov, R.Oymatov, A.Inamov, O.Ro’ziqulova, Sh.Shakirov, Sh.Rahmonov Sh.Boboqulov, R.Egamberdiyev, O.Sindarov, J.Xayitboyeva, V.Vaxobov, N.Yuldashev, O.Kucharov, A.Raxmatullayev, X.Komilova, F.To’rayev va malakali o’qituvchilar talabalarga ta’lim-tarbiya berishmoqdalar. Fakultetda yer resurslarini bosqarish, yer kadastrı, yer tuzish, geodeziya va kartografiya sohalari bo’yicha ishlab chiqarish bilan uzviy aloqalarni ta’minlash, talabalarga bilim berish va professor-o’qituvchilarning malakasini oshirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash maqsadida Qishloq x’jaligi vazirligi, “O’zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti, Davlat soliq qo’mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, O’rmon xo’jaligi davlat qo’mitasi va uning tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda o’quv, ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.